

YOSH FUTBOLCHILARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY, AXLOQIY HAMDA TEXNIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

S.X.Dusyarov

Termiz davlat universiteti

Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti o'qituvchisi

S.Qo'zimurodov

Termiz davlat universiteti

Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harakatli o'yinlar orqali yosh futbolchilarni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiyalash, ularning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirish va rivojlantirish xususiyatlari, ahamiyati hamda foydalanish samaradorligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mashq, mashg'ulot, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, ma'naviy-ma'rifiy tayyorlash, axloqiy tayyorlash, harakatli o'yinlar, tayyorgarlik turlari, jismoniy qobiliyatlar.

Bugungi kunga kelib Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o'quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda aholining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etilmoqda. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yosh futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi, jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama tarbiyalash, umumiy ish qobiliyatini oshirish vazifasini hal qiladi. Maxsus tanlab olingan harakatli o'yin turlari shug'ullanuvchilar organizmiga umumiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalardan biri sifatida qo'llaniladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikda mushak-paylarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga ichki a'zo va tizimlar funksiyasini takomillashtirishga, harakatlarni koordinatsiya imkoniyatlarini yaxshilash va harakat sifatleri umumiy darajasini oshirishga erishiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlikning maqsadi futbolchi uchungina xos bo'lgan jismoniy sifatlar va funksional imkoniyatlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishdan iboratdir. O'yinlar va maxsus tayyorgarlik mashqlari komplekslarini o'z ichiga oluvchi vositalarning rang-barangligi yosh futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshiroq takomillashtirishga va uning zaminida

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

ularning asosiy jismoniy sifatlarini maxsus ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligida kuch, tezkorlik, chidamlilik, epchillik asosiy o‘rin tutadi. Ayni shu jismoniy fazilatlar futbolchining harakat imkoniyatlari darajasini ifodalaydi.

Texnik tayyorgarligida esa maydonda to‘p bilan harakatlanish, to‘pni olib yurish, uzatish va qabul qilish, to‘pni to‘xtatishlar, zarba berish, bosh bilan harakatlar mukammal o‘zlashtirilishini talab qiladi. Texnik tayyorgarlikning mukammal o‘zlashtirilganlik darajasi musobaqa davomida o‘yin natijasi va samarasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport mashg‘ulotlarida, sport mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtlarda yoshga xos xususiyatga ega bo‘lgan harakatli o‘yin turlaridan foydalanish, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish va o‘tkazish, ularning salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishini yaxshilash, to‘g‘ri qad-qomatni shakllantirish, ularni ham ruhan, ham jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazish, ruhiy-irodaviy tarbiyalash, shuningdek, ularning ma‘naviyatini va madaniyatini yuksaltirish, axloqiy tarbiyalash, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, maqsadga intilish, birdamlik, sobitqadamlik, jamoa bilan umumiy maqsadga birga olg‘a qadam tashlash sari tarbiyalashda harakatli o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birgalikda:

- milliy qadriyat, urf-odat va an‘analarni keng targ‘ib qilish;
- yuksak ma‘naviyatli, qat‘iy hayotiy o‘rin egallashga qodir, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- o‘quvchilarni turli yot bo‘lgan g‘oyalar ta‘siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
- o‘quvchilarning ma‘naviy va jismoniy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi zararli odatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish;
- o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish masalalarida yoshga va jinsga xos xususiyatga ega bo‘lgan milliy xalq va harakatli o‘yinlar g‘oyatda muhim vosita sanaladi desak ayni muddao bo‘ladi.

Harakatli o‘yinlarni eng asosiy mazmuni o‘ynovchilarni harakatlanishi va turli-tuman harakati hisoblanadi. Uni to‘g‘ri boshqara borilganda ular organizm tizimlari va nafas olish, mushak, yurak-qon tomirlarga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Harakatli

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

o'yinlarni funksional faoliyatini oshiradi, tanadagi har xil yirik va mayda mushaklarga xilma-xil dinamik ishlarni jalb qiladi, bo'g'inlardagi harakatchanlikni oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, yosh futbolchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari va jismoniy madaniyatini shakllantirish tushunchasining pedagogik mazmuni va imkoniyatlari, sog'lom hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish, **“Jaholatga qarshi ma'rifat”**, **“Sport sog'lik garovi”**, **“Sog'lom tanda sog' aql”** g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, jismoniy tarbiya ishlari va tadbirlarini keng miqiyosda tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlari samaradorligini yanada oshirish, ularning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash bo'yicha sa'y-harakat oila, mahalla, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish nuqtayi nazaridan barkamollikka erishish, o'quvchilarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash kabi tushunchalarning uzviyligi, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi desak yanglishmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sport mashg'ulotlarida, sport maktablari tizimida yosh futbolchilarning salomatliklarini ta'minlash va mustahkamlashda, jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirish va rivojlantirishda, ularning manaviy, ma'rifiy, axloqiy tarbiyasini oshirishda yo'naltirilgan harakatli o'yin turlaridan keng miqiyosda foydalanish, ularning samaradorligini oshirish, o'quv-tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonini tanqidiy tahlillar asosida tashkil qilish, o'tkazish va talablar darajasida olib borishni taqozo etadi. Bu borada esa kasbiy va shaxsiy kompetentlik, kreativlik asosida yondashuv, pedagogik tajriba, pedagogik mahorat, yuksak ma'naviyat hamda madaniyatlilik va shu kabi bir qator tamoyillariga e'tiborli bo'lish, shu asosda jarayonlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.S.Usmanxodjayev., Sh.X.Isroilov., A.A.Pulatov., Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2015. 265 s.
2. K.Rahimqulov. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. «TAFAKKUR-BO'STONI». Toshkent-2012. 142 s.
3. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

4. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(4), 164-165.
5. Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(11), 46-49.
6. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. *International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(11), 220-224.
7. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Аминов, Б. У. (2023, January). Новые технологии для развития силовых качеств у студентов. In *international scientific and practical conference "the time of scientific progress"* (Vol. 2, No. 1, pp. 217-225).
8. Dехқонов, В. (2023). Preparation of future physical education teachers for innovative activities. *Models and methods in modern science*, 2(12), 82-86.
9. Қувватов У.Т Якубжонов, И. А., & Шокиров, Ш. Г. (2022). " Развитие воспитательной работы в студенческой футбольной команде.". In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, pp. 140-147).
10. Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich. EFFECTIVENESS OF ACTION GAMES IN THE PROCESS OF COMPLEX TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. *International scientific – online conferense*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7648394>. London.